



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д. Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:

и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

| МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ | |
|---|-----|
| Olimjon G‘ayrat o‘g‘li Fattoyev Peculiarities of stock market development | 157 |
| Abdulxay Xasanboyevich Xodjayev, Omonilla Saydaminovich Umarov Transformatsion davlatda iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi omillar | 160 |
| Рохила Баходир қизи Азизова Заргарлик хизматларини кўрсатишда маркетинг стратегияларидан фойдаланиш | 163 |
| Shahnoza Abdirashitovna Po‘latova Global iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar va yashil marketing konsepsiyasidan foydalanishning dolzarb masalalari | 169 |
| Xilola Nematovna Ochilova O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari | 173 |
| Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov Operatsion faoliyat, uni boshqarish va yangi tendensiyalar | 178 |
| Bezodjon Oblakulov, Mekhrusa Vafokulova Marketing analysis of international brand in the case of “Chartak mineral water jv ltd” | 182 |
| ИНВЕСТИЦИЯ | |
| Заррух Умарович Мухаммадиев Иқтисодиётнинг ривожланишида капитал инвестицияларнинг роли ва аҳамияти | 186 |
| МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ | |
| Жахонгир Расулович Зайналов Проблемы налогообложения прибыли инновационных предприятий | 192 |
| Xusnora Dilmurod qizi Umarova Kuchli raqobat sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari | 196 |
| Abdusamat Abdusaitovich Mamanazarov Bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini tatbiq etish | 199 |
| БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ | |
| Mamurjon Avazxon o‘g‘li Abdivoxidov Xizmat ko‘rsatish sohasini samarali rivojlantirish yo‘llari | 206 |
| ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА | |
| Jaxongir Baxtiyorovich Quljanov, Shaxnoza Ergashevna Samandarova Katta sonlar qonuni va markov teoremasi | 213 |
| ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР | |
| Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Мамлакатимизда маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш соҳасини янги босқичга олиб чиқиш, ёшларни ўз атрофига жалб этадиган лойиҳа ва ташаббусларга оид айрим таклиф ва тавсиялар | 216 |
| ИБРАТЛИ БИТИКЛАР | |
| Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Бола тарбияси | 218 |

| | |
|---|---|
| <p>Х.Очилова</p> <p>Особенности управления системой высшего образования в Узбекистане</p> <p>Аннотация. В статье рассматриваются особенности управления системой высшего образования в Узбекистане. При этом были изучены вопросы, связанные с особенностями управления системой образования. Освещены теоретические вопросы управления высшим образованием, разработаны выводы и предложения по особенностям управления.</p> <p>Ключевые слова: образование, высшее образование, менеджмент, управление, особенности управления, характеристика управления, качество образования, педагогическое мастерство.</p> | <p>Kh.Ochilova</p> <p>Peculiarities of higher education system management in Uzbekistan</p> <p>Abstract. The article examines the features of the management of the higher education system in Uzbekistan. At the same time, issues related to the features of the management of the education system were studied. Theoretical issues of higher education management are covered, conclusions and proposals on the features of management are developed.</p> <p>Keywords: education, higher education, management, control, management features, management characteristics, quality of education, pedagogical skills.</p> |
|---|---|

Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov – NamMTI, “Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.n.

OPERATSION FAOLIYAT, UNI BOSHQARISH VA YANGI TENDENSIYALAR

| |
|---|
| <p>Annotatsiya. Korxonalarining samaradorligi – korxonada faoliyatida amalga oshiriladigan operatsiyalarni to‘g‘ri bajarilishi va oqilona boshqarilishiga bevosita bog‘liq. Operatsion menejment – bu mahsulot va xizmatlarning asosiy turlarini ishlab chiqarishga qaratilgan biznes jarayonlarini tashkil qilish, ulardan foydalanish va takomillashtirish faoliyatidir. Maqolada operatsion jarayonlar va ularning mohiyati, turli yondashuvlar, sohadagi ayrim muammolar o‘z aksini topgan. Shuningdek, sohani rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tegishli tavsiyalar berilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: operatsiyalar, resurslar, moddiy resurslar, investitsiyalar, operatsion faoliyat, globallashuv, ishlab chiqarish strategiyalari, sifat menejmenti, ishlab chiqarish zanjiridagi hamkorlik, ishlab chiqarishda moslashuvchanlik, individual ehtiyojlarini qondirish, vakolatni topshirilishi.</p> |
|---|

Kirish. Ishlab chiqarishning asosi bo‘lib – bu korxonada xodimlari va mijozlari uchun muhim bo‘lgan operatsiyalarni boshqarishni tashkil etishning samaradorligi hisoblanadi. Operatsiyalar resurslarni qayta ishlab mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq inson faoliyatining har qanday turi sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarish tizimi deyilganda ishlab chiqarish omillarini tanlangan mahsulot yoki xizmatlarga aylantirish uchun operatsion resurslardan foydalanadigan tizim tushuniladi. Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyati uchta faoliyat turi bo‘yicha qabul qilingan samarali boshqaruv qarorlarini amalga oshirish natijasiga: investitsiyalar - birinchi navbatda, asosiy vositalarni yangilashga; moliyaviy - korxonani moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashga va asosiysi operatsion faoliyatga ya‘ni, mahsulot ishlab chiqarish va sotish (xizmatlar ko‘rsatish)ga bog‘liq.

Operativ faoliyatni oqilona boshqarish nafaqat taktik qarorlar qabul qilishni, balki aniq strategiyani amalga oshirishni ham talab qiladi. Biroq, bugungi kunda sanoat korxonasi miqdoriy ko‘rsatkichlariga asoslangan va korxonaning asosiy faoliyatiga, shuningdek, uning hayot siklining bosqichiga mos keladigan samarali faoliyatni boshqarishni shakllantirish va amalga oshirish uchun nazariy asoslar yetarli emas. Ushbu sohaga oid mavjud masalalarni ilmiy-amaliy yechimini topish mavzuni dolzarbligini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda korxonada faoliyatining har xil turlari mualliflar tomonidan tasodifiy tartibda, hech qanday izchil tizimlashtirilmagan holda bayon etiladi. Sanoat korxonasi faoliyati nomlari joriy, operatsion va asosiy faoliyat kabi sinonimdir, ba‘zi ta‘riflarning kontekstlarida faoliyatning ayrim turlari kengroq va torroq bo‘lgan tushunchalarni o‘z ichiga olib har xil talqin qilinadi.

V.F.Paliyning ta‘rifiga ko‘ra, operatsion faoliyat tashkilotni asosiy daromad va asosiy pul oqimlari bilan ta‘minlaydi¹. A.E.Abramov esa, operatsion faoliyat tanlangan bozor sektoridagi

¹ Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебник. – 3-е изд., испр. и доп. / В.Ф. Палий. – 178

aktivlardan samarali foydalanishni va raqobatda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan maqbul narx siyosatini izlashni ta'minlaydi deb fikr yuritadi¹. Operatsion faoliyat - nafaqat asosiy maqsad sifatida foyda olishga intilayotgan tashkilot faoliyati, balki mahsulotning hayot aylanish jarayonining asosiy jarayonlari bo'lmagan jarayonlarni ham ta'minlash va qo'llab-quvvatlashdir deyдилar o'z yondashuvlarida M.V.Monaxov va V.I.Budina².

I.V.Smirnova, N.P.Kashentsevalar esa o'z yondashuvlarida bu faoliyat mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq, ya'ni korxonaning asosiy faoliyati bilan bog'liq deb ifodalaydilar³.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartida operatsion faoliyati — xo'jalik yurituvchi sub'yektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek sub'yektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo'lmagan o'zga xo'jalik faoliyati deb izoh berilgan⁴.

Tashkilotlarni boshqarish bo'yicha an'anaviy qarash XVIII asrda shakllana boshladi. Chunki, o'sha davrda (1723–1790 yil) Adam Smit ishlab chiqarish jarayonini bir qator kichik operatsiyalarga bo'lish orqali mehnatni ixtisoslashtirishning iqtisodiy afzalliklari ko'rib chiqdi. A.Smit va E.Uitni nazariyalari ishlab chiqarishni kengaytirishga (kichik ustaxonalardan yirik zavodlarga o'tish) asoslangan bo'lib, rasmiylashtirilgan va murakkab boshqaruv usullarini talab qildi.

Ishlab chiqarishni samarali boshqarishning zaruriy sharti uning moddiy resurslar: xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, yarim tayyor mahsulotlar va boshqalar bilan kerakli me'yorda ta'minlashdir⁵. Korxonaning moddiy resurslari tarkibi barqaror moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ularning o'ziga xos turlarining nisbatini anglatadi. Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy resurslarning tarkibi va o'ziga xos turlari ushbu ishlab chiqarishning tarmoq va hududiy texnologik xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi⁶.

Agar biror bir qayta ishlash korxonasi bir necha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarsa, ishlab chiqarishda iste'mol qilinadigan resurslarning tarkibi va dinamikasi har bir mahsulot turi uchun alohida hisoblanadi. Yoki shunga ko'ra korxonani eng katta daromad va foyda bilan ta'minlovchi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish tarkibida aniq katta ulushni egallagan mahsulotlar uchun hisoblab chiqish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida olimlarning operatsion boshqaruvga xos yondashuvlari va undagi muammolar o'rganildi. Bu jarayondagi muammolar ko'rsatib berildi va tegishli xulosalar shakllantirildi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida kuzatish, umumlashtirish va mantiqiylik usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi olimlarning operatsion faoliyatga bo'lgan yondashularini o'rgangan holda, olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib “operatsion faoliyat” atamasiga nisbatan o'zimizning mualliflik ta'rifimizni quyidagicha keltiramiz: operatsion faoliyat – bu ishlab chiqarish korxonasining butun iqtisodiy faoliyatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u korxonaning asosiy maqsadini amalga oshiradi. Bunda korxonada shakllangan aktivlarning asosiy hajmi, xodimlarning asosiy soni ushbu faoliyatga xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanish sharoitida bu faoliyat yanada rivojlanadi va takomillashib boradi. Demak, unga bo'lgan yangi yondashuvlar shakllanib boradi.

Bir qator olimlarning mavzu doirasidagi tadqiqotlaridan ma'lumki, operatsion menejment

М.: ИНФРА-М, 2008. – 72 с.

¹Абрамов А.Е. Основы анализа финансовой, хозяйственной и инвестиционной деятельности предприятия / А.Е. Абрамов. – М.: АКДИ Экономика и жизнь, 1994. –22 с.

²Монахов М.В. Особенности проведения анализа операционной деятельности при разработке операционных стратегий предприятий оборонно-промышленного комплекса / М.В. Монахов, В.И. Будина // Формирование конкурентной среды, конкурентоспособность и стратегическое управление предприятиями, организациями и регионами: сборник статей Международной научно- практической конференции / МНИЦ ПГСХА. – Пенза: РИО ПГСХА, 2015. – С.75–81.

³Смирнова И.В. Управление стоимостью предприятия: учебное пособие / И.В.Смирнова, Н.П. Кашенцева. – Архангельск: САФУ, 2014. – 28 с.

⁴Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти. <https://lex.uz/acts/818994>

⁵Nabijanovich, D. B. (2022). INNOVATIVE ACTIVITY MANAGEMENT ISSUES. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3744-3755.

⁶Dedajanov, B. N. (2021). FOREIGN MANAGEMENT MODELS: ADVANTAGES AND DISADVANTAGES. In ЭКОНОМИКА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В СОВРЕМЕННОМ ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ (pp. 17-20).

sohasidagi faoliyatning o‘ziga xos xususiyati – bu menejerlarning o‘zgaruvchan dunyoga yoki dinamikaga doimiy qarshilik ko‘rsatishi va tashqi muhitning noaniqligi yuqori bo‘lgan ko‘plab harakatlarni o‘z ichiga oladi deydlar.

Bizning fikrimizcha, operatsion menejment oldida turgan eng qiyin muammolar mavjud bo‘lib, bularga – ishlab chiqarish strategiyalarini korxonaning boshqaruv strategiyasi bilan bog‘lashni pastligi; rahbardan tortib ishchigacha bo‘lgan butun korxonada mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilashning uzluksiz jarayoniga aylanmaganligi; resurslarni yetkazib berish va boshqa operatsiyalarni o‘z vaqtida bajarish operativligining sustligi va boshqa shu kabilarni kiritishimiz mumkin.

Operatsion menejment sohasi dinamikasi jahon iqtisodiyoti va savdosining globallashtirishidan tortib, mahsulot g‘oyalari, pullarni elektron pochta orqali o‘tkazishgacha bo‘lgan turli kuchlarning natijasi hisoblanadi. Tahlillardan kelib chiqqan holda, quyida operatsion menejment oldida turgan yangi, eng qiyin muammolarga to‘xtalib o‘tishimiz:

1. Globallashtirish. Axborot narxlarining keskin pasayishi va tovarlarning kuzatilishi bozorni globallashtirishga olib keladi. Shu bilan birga, moddiy resurslar, iste‘dodli ishchilar ham global muammoga aylanib bormoqda. Tez globallashtirishni qo‘llab-quvvatlash butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy o‘sish va sanoatlashtirish uchun kurashayotgan mamlakatlarning kundalik muammosidir. Operatsion menejerlar g‘oyalarni yaratadigan va ilgari suradigan, mahsulotni kerakli darajada tez ishlab chiqarishga olib keladigan innovatsiya uchun mas‘uldirlar.

2. Ishlab chiqarish strategiyalari. Hozirgi kunda tobora ko‘payib borayotgan kompaniyalar biznesning umumiy muvaffaqiyati uchun ishlab chiqarish strategiyalarining muhimligini va ishlab chiqarish strategiyasini kompaniyaning korporativ strategiyasi bilan bog‘lash zarurligini tan olishmoqda.

3. Umumiy sifat menejmenti. Rahbardan tortib ishchigacha bo‘lgan butun korxonada mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilashning uzluksiz jarayoniga jalb qilinadi.

4. Resurslarni yetkazib berish va boshqa operatsiyalarni o‘z vaqtida bajarish. Zaxiralarni yaratish uchun katta moliyaviy resurslar sarflanadi. Kerakli miqdorda zaxiralarning mavjud emasligi bozordagi o‘zgarishlar dinamikasiga javob berishga to‘sqinlik qiladi. Operatsion menejerlar xom ashyodan tortib tayyor mahsulotgacha bo‘lgan har bir darajadagi zaxiralarni boshqaradilar.

5. Ishlab chiqarish zanjiridagi hamkorlik. Xom ashyo va texnologik jarayon tez o‘zgarib turadigan ishlab chiqarishda hayot tsikli (umri) qisqaroq bo‘lgan mahsulotlar uchun yetkazib beruvchilardan ko‘proq ishtirok etishni talab qiladi. Yetkazib beruvchilar odatda mahsulotni yuqori narxga taklif qilishadi. Shuning uchun, operatsion menejerlar ta‘minot zanjiridagi muhim ta‘minotchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni o‘rnatadilar.

6. Yuqori ta‘sirchan (tezkor) tovarlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish (takomillashtirish). Xalqaro miqyosda tezkor yangiliklar almashinuvi, reklama va turmush tarzi mahsulotlarning hayot tsiklini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Operatsion menejerlarning iste‘molchilar talablaridagi o‘zgarishlarga munosabati tezlashmoqda, bunda - pirovardda ishlab chiqarishga qo‘shimcha foyda beruvchi yangi texnologik ishlanmalar, noan‘anaviy materiallar, innovatsion usullar, yangi jihozlar va mahsulotlar tezroq yaratilmoqda.

7. Ishlab chiqarishda moslashuvchanlik va tezlikni amalga oshirish, ya‘ni talab hajmi, mahsulot assortimenti va dizayndagi o‘zgarishlarga tezkor javob berish qobiliyati. So‘nggi yillarda moslashuvchanlik va tezlikni rag‘batlantirish maqsadida yangi “mobil” ishlab chiqarish kontseptsiyasi paydo bo‘ldi. Bunday kontseptsiya “virtual” korxonalarining paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin, bu yerda bir nechta korxonalar ma‘lum bir mahsulotni yaratish uchun bir muncha vaqt birlashadilar va keyin bu birlashma yana bo‘linib ketadi.

8. Buyurtmachining texnik shartlariga muvofiq mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarish, shuningdek ishlab chiqarishda individuallashtirish rivojlanmoqda. Operatsion menejerlar iste‘molchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yetarli darajada moslashuvchan bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari yordamida javob beradilar. Maqsad - istalgan vaqtda, istalgan joyda kerak bo‘ladigan individual mahsulotni ishlab chiqarishdir.

9. Vakolatni keng ko‘lamda va asosli topshirilishi. Ushbu yo‘nalish xodimlar va ishchilarning bilim darajasi doimiy ravishda o‘sib borishi, ish joylari texnik jihatdan yaxshi jihozlanganligi va operatsion menejerdan avvalgidan ko‘ra ko‘proq malaka talab qilinishi bilan izohlanadi.

10. Ekologiya masalalari. Atrof – muhitning ifloslanishini nazorat qilish va qayta ishlash ishlab chiqarish menejeri ishidagi asosiy muammolardan biridir. Ushbu masalalarni tartibga soluvchi qonunlar, qoidalar va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tobora ko‘payib, murakkablashib bormoqda. Natijada, ekologik me‘yorlarga rioya qilmaslik uchun jarimalar va jazolar ko‘paymoqda.

Xulosa va takliflar. Olib borgan tadqiqotlarimizdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, operatsiyalarni boshqarish tizimi boshqa tashkiliy tizimlar va umuman ishlaydigan muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Operatsion menejment – bu mahsulot va xizmatlarning asosiy turlarini ishlab chiqarishga qaratilgan jarayonlarini tashkil qilish, ulardan foydalanish va takomillashtirish faoliyatidir.

Shuningdek muallif tomonidan operatsion faoliyat tushunchasiga mualliflik ta‘rifi berilgan. Lekin bu faoliyat o‘zgaruvchan innovatsion sharoitda o‘zgarib borishiga urg‘u berilgan. Demak bundan, sohada tadqiqotlar yana davom etishi va uning zururligini bilish mumkin.

Bizningcha, korxonalarda operatsion boshqarish jarayoni mummolarini bartaraf etish va uni samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim deb o‘ylaymiz: ishlab chiqarish zanjirida samarali hamkorlikni olib borish; menejerlar ta‘minot zanjirida muhim bo‘lgan ta‘minotchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni o‘rnatishlari lozim; yuqori ta‘sirchan (tezkor) tovarlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish (takomillashtirish); xalqaro miqyosda tezkor yangiliklar almashinuvi, reklama va turmush tarzi mahsulotlarning hayot siklini sezilarli darajada o‘zgartirib boradi, shuning uchun yangi texnologik ishlanmalar, noan‘anaviy materiallar, innovatsion usullar, yangi jihozlar va mahsulotlarni tezroq yaratish lozim; ishlab chiqarishda moslashuvchanlik va tezlikni amalga oshirish, ya‘ni talab hajmi, mahsulot assortimenti va dizayndagi o‘zgarishlarga tezkor javob berish lozim; ishlab chiqarishda iste‘molchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yetarli darajada moslashuvchan bo‘lishlari lozim va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия хисоби миллий стандарти. <https://lex.uz/acts/818994>
2. Абрамов А.Е. Основы анализа финансовой, хозяйственной и инвестиционной деятельности предприятия / А.Е. Абрамов. – М.: АКДИ Экономика и жизнь, 1994. – 95 с.
3. Монахов М.В. Особенности проведения анализа операционной деятельности при разработке операционных стратегий предприятий оборонно-промышленного комплекса / М.В. Монахов, В.И. Будина // Формирование конкурентной среды, конкурентоспособность и стратегическое управление предприятиями, организациями и регионами: сборник статей Международной научно- практической конференции / МНИЦ ПГСХА. – Пенза: РИО ПГСХА, 2015. – С.75–81.
4. Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебник. – 3-е изд., испр. и доп. / В.Ф. Палий. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 512 с.
5. Производственный менеджмент: учебник / Под ред. В.А. Козловского. – М.: ИНФРА-М, 2003. – 574 с.
6. Смирнова И.В. Управление стоимостью предприятия: учебное пособие / И.В.Смирнова, Н.П. Кашенцева. – Архангельск: САФУ, 2014. – 101 с.
7. Dedajanov, B. N. (2021). FOREIGN MANAGEMENT MODELS: ADVANTAGES AND DISADVANTAGES. In *ЭКОНОМИКА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В СОВРЕМЕННОМ ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ* (pp. 17-20).

8. Nabijanovich, D. B. (2022). INNOVATIVE ACTIVITY MANAGEMENT ISSUES. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3744-3755.

| | |
|--|--|
| <p>Б.Дедажанов</p> <p>Операционная деятельность, управление ею и новые тенденции</p> <p>Аннотация. Эффективность предприятия напрямую зависит от правильного выполнения и рационального управления осуществляемыми операциями. Операционный менеджмент – это деятельность по организации, использованию и совершенствованию бизнес-процессов, направленная на производство основных видов продукции и услуг. В статье отражены операционные процессы и их природа, различные подходы и некоторые проблемы в данной области. Также даются соответствующие рекомендации по развитию отрасли и устранению существующих проблем.</p> <p>Ключевые слова: операции, ресурсы, материальные ресурсы, инвестиции, операционная деятельность, глобализация, производственные стратегии, менеджмент качества, кооперация в производственной цепочке, гибкость производства, удовлетворение индивидуальных потребностей, делегирование полномочий.</p> | <p>B.Dedajanov</p> <p>Operational activities, its management and new trends</p> <p>Abstract. The efficiency of enterprises directly depends on the correct implementation and rational management of operations carried out at the enterprise. Operations management is the activity of organizing, using and improving business processes aimed at producing the main types of products and services. The article reflects operational processes and their importance, various approaches and some problems in this area. Relevant recommendations for developing the industry and eliminating existing problems are also offered.</p> <p>Keywords: operations, resources, material resources, investments, operational activities, globalization, production strategies, quality management, cooperation in the production chain, production flexibility, meeting individual needs, delegation of authority.</p> |
|--|--|

Bekzodjon Oblakulov – assistant teacher at Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage

Mekhruza Vafokulova – assistant teacher at Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage

MARKETING ANALYSIS OF INTERNATIONAL BRAND IN THE CASE OF “CHARTAK MINERAL WATER JV LTD”

Abstract. This article analyses current trends of international company in the case of Chartak such as BCG (Boston Consulting Group) matrix, SWOT analysis and STP analysis and gives recommendation for further improvements. It also gives a general understanding of business and marketing reports of this company.

Keywords: SWOT, BCG matrix, segmentation, targeting, positioning, social media, concentrated and differentiated marketing, marketing strategy.

Introduction. This article mainly aims for the analyzing one of the water industries in Uzbekistan and expects some of the possible results from its implemented research. Nowadays it is vital for marketing students to put their knowledge into practice which is acquired from the lesson. In this article shows how the companies implement some marketing strategies such as BCG matrix, SWOT and STP marketing for surviving in this global market. Some of the small entrepreneurs are finding some difficulties after establishing their business not knowing where to begin. In this case, marketing or marketers can come to help for understanding to use some tactics for the development their business. Thanks to AI machines or technologies, manufacturing of goods or delivering has already been alleviated but selling main products is becoming one of the difficulties that sellers have. Chartak mineral water has taken as a main key for checking whether

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.